

**ALISHER NAVOIY G'AZALLARINING G'OYAVIY-BADIY
XUSUSIYATLARI**

Alijonova Dilshodaxon Qahramon Qizi

Isaqova Gullola Abdullajon qizi

*Farg'ona davlat universiteti
filologiya fakulteti 2-bosqich talabalari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodi, g'azallari, undagi badiiy san'atlar haqida fikr yuritiladi va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari ifodalananadi.

Kalit so'zlar: g'azal, badiiy san'atlar, g'oya, Navoiy uslubi, so'z qo'llash mahorati, badiiyat, mohiyat, oshiq, yor.

KIRISH

O'z ijodi bilan turkiy tildagi adabiyotlarni dur-u gavharlar bilan jilolagan, uning taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan Alisher Navoiy sharq adabiyotini butun dunyoga tanitgan. O'zidan boy adabiy meros qoldirgan ulug' bobomizning asarlari so'z san'atining eng yirik namunalaridir. Shoirning g'azallari shu yirik namunalarga yaqqol misol bo'la oladi. Alisher Navoiy g'azallarini o'qir ekanmiz, uning badiiyatining yuqoriligi, sermazmunligi, g'oyasining izchilligi, tarbiyaviy ahamiyatga egaligiga guvoh bo'lamicha. Shoirning g'azallari o'ziga xos san'at olamini tashkil qiladi. So'z san'atining yuksak g'oyalar ifodalangan oliy namunasi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Alisher Navoiy ijodini o'rganar ekanmiz, undagi ma'no-mazmunning tuganmas ekanligiga guvoh bo'lamicha. Shu jumladan, Navoiyning g'azallarini o'qib, undagi har bir so'zning mag'zini chaqishga nima yetsin! Biz ushbu maqola davomida Navoiyning g'azallaridagi ochilmagan qirralarni oshib berishga harakat qildik va tahlilga tortdik.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Navoiyning har bir so'zida bir jahon ma'no, bir olam his-tuyg'ular namoyon bo'ladi. Har safar ulug' shoirning baytlarini o'qiyotganimizda yangi-yangi ma'nolar kashf bo'ladigandek go'yo. Shu kabi o'ziga xos ma'nolar jam bo'lgan g'azallarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Alisher Navoiyning "Sen mening" radifli g'azali:

Gar jafo qil, gar vafokim, dilsitonim sen mening,
Gar meni o'ltur va gar turguzki jonim sen mening.
Xoh ra'no qad bila borg'il yonimdin jilvagar,
Xoh kel qoshimg'akim, sarvi ravanim sen mening.
Ko'nglum ichra sensen-u ishqing, ne dey holim senga,
Chun bu yanglig' mahrami rozi nihonim sen mening.
Jilva aylab har zamon, afg'on-u ohim qilma ayb,

Ham sen-o‘q chun boisi oh-u fig’onim sen mening.
 La’lidin bir-ikki so‘z mazkur qil, ey xasta jon,
 Bori bu bir-ikki damkim, mehmonim sen mening.
 Telbalardin garchi rad qilding, lek anglag’il,
 Kim pari ruxsoralardin tanlag’onim sen mening.
 O’ldi mehringdin Navoiy, bevafo debsan ani,
 Ertaki nozik mizozi badgumonim sen mening.

Bu g’azalda yorga vafodorlik tuyg’usi, sadoqat hissi ifodalangan. G’azal ishq mavzusida bitilgan.”Sen mening” so‘zi radif hisoblanadi. Ushbu g’azalda oshiq va ma’shuqa obrazlari orqali ishq mavzusi tasvirlangan. Navoiyning lirik qahramoni oshiq yoriga murojaat qilishi ifodalangan, menga vafo qilsang ham, jafo qilsang ham, baribir seni sevaman, yonimdan parvo qilmay o’tib ketsang ham senga bo‘lgan histuyg’ularim o‘zgarmaydi.

G’azalda go‘zal yor ishqining vujudini egallab olib, ko‘nglidan joy olgan. G’azalning birinchi va ikkinchi baytida tazod san’ati qo‘llangan: vafo va jafo; o‘ldirmoq va tiriltirmoq. Bu baytlarda gar va xoh so‘zlari takrir san’atini yuzaga keltirgan. Bu orqali shoир oshiq sadoqati bilan birga yorning holatini ham aks ettirgan. Jafo qiladigan ham, vafo qiladigan ham, o‘ldiradigan ham, tiriltiradigan ham mahbubadir. Ya’ni yor vafo qilsa-tiriltiradi, jafo qilsa-o‘ldiradi. Yor oshiqning holatini biladi. Chunki ko‘p majoziy ishq g’oyasi kuylangan g’azallarda oshiq-talabgor, unda araz qilish, noz bo‘lmaydi. Ma’shuqada esa araz, oshiqni sinash va noz-u karashmalar ko‘zga tashlanadi.

G’azalning uchinchi baytida sensen-u, senga, sen so‘zlari orqali takrir san’ati yuzaga kelgan va baytning ma’nosini kuchaytirishga xizmat qilgan. Bu baytda ta’did san’ati ham qo‘llangan.

G’azalning to‘rtinchi baytida sen jilva aylab, afg’on va oh qilayotgananimni ayblama, chunki bu holatimga sen o‘zing sababchisan, demoqchi. Bu baytda afg’on va oh so‘zlari tanosub va tardi aks san’atini yuzaga keltirgan.

Beshinchi baytda ishq dardiga yo‘liqqan, shu yo‘lda jon berayotgan oshiq holati tasvirlangan. Jonga murojaat qilib, yorning la’lday lablari-so‘zlarini takror qil, sen men uchun mehmongan demoqchi. Bu baytda yor visolidan umid uzgan inson tasvirlangan. Ya’ni bu yerda oshiqning joni-yor. Yor vafo qilmasa, rad qilsa, jon ham u bilan ketadi. Bu baytdan yana bir ma’noni anglash mumkin. Ya’ni bu baytda dunyoning o‘tkinchiligi, uning bir-ikki dam ekanligiga ishora bor. Hammamiz bu dunyoga mehmon ekanligimizni Navoiy bizga eslatmoqda. Oshiq-u ma’shuqlar ham bir-birining visoliga to‘ymay bu dunyodan ketishlari(Layli va Majnun) ifodalangan.

Oltinchi baytda telba va pari so‘zlari qo‘llangan. Xalq orasida pari ko‘rgan iborasi bor. Bunday odam telba deyiladi. Navoiy shunga ishora qilib, oshiq tilidan: Ey yor, sen meni telba deb rad qilding, chunki seni ko‘rib men shu holatga tushdim, shuni anglagin. Bu baytda tazod san’ati qo‘llangan: telba va pari.

Maqtada Navoiy mehringga muhtoj bo‘lib o‘ldi, sen uni bevafo debsan, ey mening noziktabligim, deyilgan. Bevafo, badgumon so‘zlari orqali tanosub san’ati yuzaga kelgan.

G’azalda ishq mavzusi yoritilgan. An’anaviy 7 baytli. Badiiy san’atlardan foydalanilgan. Bu san’atlar g’azalning qimmatini yanada oshirgan. Ta’sirchan ruhda yaratilgan. Navoiyning har bir g’azalini o‘qiganimizda qandaydir musiqiy ohang borga o‘xshaydi. Bu Navoiyning ulug’ va betakror shoir ekanligidan dalolat beradi.

Alisher Navoiynnning “Vafo” radifli g’azali:

Kimsa hargiz ko‘rmadi chun ahli davrondin vafo,
Ulki davron ofatidur, ne tama’ andin vafo.
Jonu umrum uldurur, gar bevafo bo‘lsa ne tong,
Qayda ko‘rmish kimsa hargiz umr ila jondin vafo!
Gar vafo qilsang, erur andinki, bordursen pariy,
Yo‘qsa, kim olamda ko‘rmish nav’i insondin vafo!
Vahki, davron ahlidin juz bevafolig‘ kelmadi,
Har nechakim, ko‘rdilar men zori hayrondin vafo.
Chun vafo gulbargi dazron bog’ida ochilmadi,
Bejihattur kimki istar bu gulistondin vafo.
Kimsa ko‘nglin, kimsadin istab vafo, oldurmasun
Kim, manga xud yetmadi ul ko‘nglum olg’andin vafo.
Ey Navoiy, gar vafosiz chiqtı ul sultonı husn,
Topting eldinkim, tilarsen emdi sultondin vafo.

Bu g’azal vafosizlik tuyg’usi, ya’ni dunyoning o‘tkinchiligi haqida yozilgan. "Vafo" so‘zi radif hisoblanadi. An’anaviy 7 baytli. Badiiy san’atlardan foydalanilgan. Matla’da bu dunyoda hech bir inson insonlardan vafo ko‘rmagani va insonlardan vafo kutmaslik kerakligi haqida bo‘lib, bu baytda "davron" so‘zini 2 marta qo‘llash orqali takrir san’atidan foydalanilgan.

Ikkinchi baytda esa inson borki, ularning hech biriga bu dunyo vafo qilmagan. Bu baytda muallif Alloh bergen jonni, umrni insonga omonat ekanligini va insonga qachon o‘lishi noma’lumligi, bu faqat Yaratganga ayonligi, dunyoning o‘tkinchiliginini aytadi. Ushbu baytda “jon”, “umr” so‘zlari tanasub va shu bilan birga takrir san’atlarini hosil qilgan. Bundan tashqari ushbu baytda tazod san’ati ham qo‘llangan bo‘lib, “bevafo” va “vafo” so‘zlarida bu san’atni ko‘rishimiz mumkin.

Uchinchi baytda agar sen vafo qilsang, bu sening pariyligingni anglatadi. Chunki odam ahlidan hech kim vafo ko‘rmagan deyapti. Ya’ni odamlardagi vafosizlikdan shikoyat qilyapti. Bu baytda “pari” so‘zi istiora san’atini yuzaga keltirgan.

To‘rtinchi baytda esa odam ahlidan yuz bevafolig' kelmadi, lekin har doim mendan ular vafo ko‘rdilar deydi. Bu baytsa “bevafo” bilan “vafo” so‘zida tazod bor.

Beshinchi baytda har kim gulistonidan vafo istar, lekin ushbu dazron bog’ida vafo gulbargi ochilmadi. Ya’ni dazron deb atalgan bu o‘tkinchi dunyoda vafo qilguchi insonlar topilmadi. Baytda “guliston”, “gulbarg” va “bog” so‘zлari tanosub san’atini hosil qilyapti. Shu bilan birga baytda ishtiqoq san’ati ham qo‘llangan “guliston” va “gulbarg” so‘zlarida.

Oltinchi baytda hech bir inson birovdan so‘rab vafo olmasin, chunki menga bunday vafo yetmadi deydi. Baytda ishtiqoq va takrir san’atlaridan foydalanilgan. “Kim”, “kimsa” va “kimsadin” so‘zлari bu san’atni yuzaga keltirgan.

Maqta’da “Ey Navoiy” deb nido san’atidan foydalanilgan. “Vafosiz” va “vafo” so‘zлari orqali tazod san’ati qo‘llanilgan. Ushbu g’azalda eng ko‘p takrir san’atidan foydalanilgan. Baytda muallif o‘ziga ey Navoiy, agar sultoni husn, ya’ni yoriga ishora qilib, yoring vafosiz chiqib qolsa, eldan ham vafo topmading endi yordan ham vafo tilaysan degan mazmunda g’azalni yakunlaydi. Navoiy g’azallarining badiiy mahorati beqiyos va o‘zbek g’azaliyotida Navoiy g’azallari muhim o‘rin tutadi. Navoiy g’azallari hamisha ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatini saqlab qoladi desak mubolag’a bo‘lmaydi.

Xulosa: Xulosa o‘rnida aytish lozimki, Alisher Navoiy g’azallari haqida gapiradigan bo‘lsak, Navoiy g’azallari turli mavzularga bag’ishlanishi bilan birga ishq mavzusi uning ijodida alohida mavzqega egadir. Navoiy ijodida ishq keng qirrali mavzu sifatida qalamga olingandir va shuning uchun ham Navoiy g’azallarining g’oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida gap ketganida, avvalo, ishq mavzusidagi g’azallari hayolimizga keladi. Misol uchun insonning insonga, tabiatga bo‘lgan ishq-muhabbati va bu bilan birga Alloha bo‘lgan ishqqi masalalari yoritilgan. Har ikkala ishq mukammal mujassam bo‘lgan shaxsning komil inson darajasiga erishuvi Navoiyning bosh maqsadi hisoblangan. Navoiy bundan tashqari insonlar o‘rtasidagi ishqni gunoh deb emas, aksincha uni eng oliyjanob fazilat va hodisa deb hisoblaydi. Ya’ni bu ishqni ko‘ngilga solgan ham Alloh va bu bilan Navoiy yorni Alloh bilan bo‘lgan muhabbatda bir vositachi ekanligini ta’kidlamoqchi bo‘lsa ajabmas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy (2016) “Xazoyin ul-maoniy”. “Yangi asr avlodи”.
2. Alisher Navoiy(2011) “Favoyi ul-kibar” 4-jild.
3. Hojiahmedov A.(2008) “Mumtoz badiyat lug’ati”. “Yangi asr avlodи”.
4. Haqqul I.(2007) “Navoiyga qaytish” 1-kitob. Fan.
5. Quronov D.(2015) Talqin imkonlari. Turon zamin ziyo.